“CHOLG‘U IJROCHILIGI” VA “AN’ANAVIY XONANDALIK” TA’LIM YO‘NALISHLARIDA “SOLFEDJIO” FANINING O‘RNI

Mullajonov Davlat Mavlonovich *–san’atshunoslik fanlari nomzodi, dotsent*
O‘zDSMI “San’atshunoslik va madaniyatshunoslik” kafedrasi

Tayanch so‘zlar: musiqa, musiqa san’ati, musiqiy savodxonlik, umumkasbiy, musiqiy did, musiqiy xotira va tafakkur, musiqiy-estetik tarbiya, sintezator, mikrofon, stereo yozuvlar, kompyuter dasturlari.

Ключевые слова: музыка и музыкальное искусство, музыкальная грамота, специальные предметы, музыкальный вкус, музыкальная память и мышление, музыкально-эстетическое воспитание, синтезатор, микрофон, стереозаписи, компьютерные программы.

Key words: mmusic and musical art, musical literacy, special subjects, musical taste, musical memory and thinking, musical and aesthetic education, synthesizer, microphone, stereo recordings, computer programs.

Mustaqillik tufayli xalqimizning boy tarixiga adolatli baho berish, milliy qadriyatlarimizni e’zozlash, ezgulikka yo‘g‘rilgan an’analar, urf-odatlarimizni qayta tiklash, ularni rivojlantirish, jahondagi ijobiy tajriba va tendensiyalar, yutuq va natijalarni har tomonlama chuqur o‘rganish asosida madaniyat va san’at muassasalari faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yish, ularda faoliyat yuritayotgan ilmiy kadrlar salohiyatini mustahkamlashga qaratilgan ko‘plab xayrli ishlar amalga oshirildi. Ayniqsa, so‘nggi yillar mobaynida Oliy ta’lim tizimida chinakam inqilobiy o‘zgarishlarga xizmat qiladigan muhim hujjatlar imzolandi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 iyundagi PQ-3775-son «Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida» [1.] qarori ijrosi tufayli respublikamiz oliy ta’lim muassasalarida ilg‘or jahon tajribalari asosida darslik va o‘quv qo‘llanmalari, davriy nashrlar chop etildi. Bu borada O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutida ham davlat ta’lim standartlari, malaka talablari, o‘quv reja va fan dasturlariga muvofiq talaygina o‘quv adabiyotlari yaratildi va ulardan ta’lim tizimida faol qo‘llanilmoqda.

Ma’lumki, “Solfedjio” fani musiqa san’ati “Xalq cholg‘ulari” va “An’anaviy xonandalik” ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha umumkasbiy tarixiy va nazariy fanlar sohasiga taalluqlidir. Mazkur fan boshqa umumkasbiy fanlar kabi talabalarning estetik qarashlari, axloqiy munosabatlari va ehtiyojlarini shakllantirishga, shuningdek, ma’naviy qadriyatlar kesimida milliy san’at asarlarini idrok etishni tarbiyalaydi. Shu bois, ushbu fanni ayni paytda oliy ta’lim tizimida o‘qitilishiga oid ayrim fikr-mulohazalarni bayon etishni maqsadga muvofiq deb hisobladik [5.]. Solfedjio darslari talabalarda tinglash (eshitish), musiqiy xotira, ritm kabi bilim va ko‘nikmalarni rivojlantiradi, ularning ijodiy rivojlanishiga yordam beradi va musiqa san’atining nazariy asoslari bilan yaqindan tanishtiradi. Ular boshqa faoliyat turlari bilan bir qatorda musiqiy dunyoqarashning kengayishiga, musiqiy didning shakllanishiga, musiqaga muhabbat uyg‘onishiga katta hissa qo‘shadi. Shu bilan birga, Solfedjio darslarida olingan bilim va ko‘nikmalar o‘quvchilarga cholg‘u ijrochiligi va an’anaviy xonandalik darslarida, shuningdek, badiiy yo‘nalishning qo‘shimcha umumiy rivojlantiruvchi dasturlarining boshqa fanlarini o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta’lim dasturi tarkibidagi barcha fanlar kabi Solfedjio fanining maqsadi talabalarning musiqiy-estetik tarbiyasiga, ularning umumiy musiqiy dunyoqarashini kengaytirish, musiqiy didini shakllantirish, tinglash, xotira va tafakkurini hamda ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishdan iboratdir. Shuningdek, darslarda og‘zaki tushuntirish, turli xil vizual ko‘rgazmali jadvallar, darsliklar va ijodiy mashqlar kabilardan foydalangan holda talabalarning musiqiy qobiliyatini, tafakkurini va xotirasini maqsadli tizimli rivojlantirish, musiqani idrok etish asoslarini tarbiyalash, musiqa tilini o‘rganishdagi qonuniyatlarni anglash, cholg‘uda musiqa asarini ijro etishda, musiqa yaratishning ijodiy shakllarida amaliy ko‘nikmalar va ulardan foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish hamda talabalarda tinglash (eshitish) qobiliyatlarini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi [3.].

Alohida qayd etish kerakki, Solfedjio fanining maqsad va vazifalarini talabalar faoliyatini tashkil etishda lad ichidagi pog‘onalarni yechilishiga asoslangan vokal-intonatsion mashqlarni kuylash, bir va ikki ovozli musiqiy misollarni, shu jumladan nota varag‘idagi musiqa namunalarni “o‘qish”, o‘rganilayotgan akkord va intervallarning berilgan tovushdan va tonallikda

tuzib kuylash, musiqiy misollar va musiqiy til unsurlarini tinglab tahlil qilish, yakka tartibda va ansamblda metroritmik mashqlarni kuylash, murakkab bo‘lmagan kuyni notada yozish (musiqiy diktant), musiqiy misolning bas ovozini, jo‘rovazlikni tinglab fortepianoda ijro etish, berilgan musiqiy matnni yoki ritmik formulaning davomini yaratish, yodlangan misollarni transpozitsiya qilib kuylash kabi shakllardan foydalangan holda amalga oshiriladi.

Albatta ushbu dasturni amalga oshirishda ta’lim muassasasida talabalar uchun o‘quv qo‘llanmalar, uslubiy adabiyotlar mavjudligi, audio kutubxonaning mavjudligi, didaktik tarqatma materiallar mavjudligi, fanlararo faol aloqalarga rioya qilish, turli musiqa ta’lim muassasalari bilan tizimli hamkorlik, tajriba almashish, Solfedjioni o‘qitishning yangi shakllari va usullarini faol izlash, o‘qituvchining o‘z-o‘zini tarbiyalash muhim shartlardandir.

Yuqorida qayd etilgan maqsad va vazifalar va shartlarni amalga oshirishda eng avvalo talabalarda musiqa san’atini tushunish, kuy va garmoniya go‘zalligini his qilish, kuylash yoki cholg‘uda ijro etishni sevish uchun musiqiy tinglash qobiliyati bo‘lishi kerak. Aslida musiqiy tinglash – bu musiqa tovushlarining balandligi va davomiyligini idrok etish va ovoz bilan yoki cholg‘uda ularni takrorlay olish qobiliyatidir. Keng ma’noda esa musiqiy tinglash qobiliyati yoki musiqiylik deganda musiqaning ma’nosini, musiqiy taassurotlarni idrok etish qobiliyati tushuniladi.

Konsertlarga, operaga tashrif buyuradigan, xorda kuylaydigan, musiqiy cholg‘uda ijrochilik sirlarini o‘rganayotgan har bir talabaning musiqiy tinglash qobiliyati bo‘lishi kerak. Ammo musiqachi bo‘lishga qaror qilgan talaba uchun musiqiy tinglash qobiliyati kasbiy faoliyatning asosiy, muhim vositasidir. Talaba uchun musiqiy tinglash qobiliyati “tabiatan” bo‘lishi yetarli emas. Shunday ekan musiqiy qobiliyatni har bir ta’lim bosqichlarida rivojlantirish va o‘stirish lozim. Har qanday qobiliyat singari, u ham sezilarli darajada yaxshilanishi, tobora nozik va “sezgir” bo‘lib, yanada moslashuvchan va tartibli bo‘lishi mumkin.

Ma’lumki, musiqiy qobiliyatning asosiy unsurlari – ***lad*** va ***ritm*** hissidir. Lad hissi musiqa tovushlarining o‘zaro bog‘liqligini, ularning balandligi va ma’nosini idrok etishga hamda musiqadagi tovushlarni o‘zaro bog‘liqligini ajratishga yordam beradi [4.].

Ritm hissi esa talabada musiqiy tovushlarning vaqtli qanday tashkil etilishini, qisqa tovushlarni uzundan, uziq va cho‘zilgan tovushlardan ajratishga, “musiqiy nutq”dagi urg‘ular orqali musiqiy tovushlarning har biriga ergashish tartibini his qilish va ularni tushunishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, har bir malakali pedagog o‘z tajribasidan kelib chiqqan holda solfedjio fani mazmunli va talabalar uchun qiziqarli o‘tishiga urinishi kerak. Bu XXI asr Solfedjio fanini o‘qitishning muhim masalalardan biridir. Ushbu masalaga oid ayrim fikr-mulohazalarimizni ham bayon etamiz.

Eng avvalo Solfedjio fanining mohiyatini soddalashtirmasdan, uni yangi avlod talabalari uchun qiziqarli qilish lozim. Bunda psixologiya fanining zamonaviy yutuqlari asosida solfedjio fanining o‘qitish metodikasini ishlab chiqish, fanning musiqiy bazasini, jumladan, XXI asrning zamonaviy musiqasini, shuningdek, folklor, jaz va ommabop musiqa namunalari bilan boyitish, musiqachi-ijrochi va an’anaviy xonandaning o‘ziga xos ijro xususiyatlarini hisobga olgan holda Solfedjioni zamonaviy konsert amaliyotiga yaqinlashtirish va nihoyat o‘qitishni sintezatorlar, mikrofon stereo yozuvlari, kompyuter dasturlarida faol qo‘llash maqsadga muvofiqdir [7.].

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida» 2018 yil 5 iyundagi PQ-3775-son Qarori.

2. Abdullina G. V. Sistematicheskiy kurs zanyatiy po solfedjio: metodicheskoye posobiye dlya muzikalnix fakultetov pedagogicheskix vuzov / G. V. Abdullina. – Sankt-Peterburg: Kompozitor, 2004.

3. Bushina T. V. Osnovi formirovaniya i razvitiya garmonicheskogo sluxa: metodicheskaya razrabotka [Elektronniy resurs] URL: http://ext.spb.ru/2011-03-29-09-03-14/118-additional-education/2691-2013-04-10-07-58-52.html (24.01.2018).

4. Jukov S. V. Razvitiye ladogarmonicheskogo sluxa uchashixsya podrostkovogo vozrasta sredstvami vokalnogo ansamblevogo ispolnitelstva // Vestnik kafedri YUNESKO «Muzikalnoye iskusstvo i obrazovaniye». – 2013. – № 1. [Elektronniy resurs]

5. Ibrohimov O.A., Yunusov R.Y. Solfedjio darsligi. The Aga Khan Trust for Culture T.: 2004.

6. Kazanseva N. A. Razvitiye garmonicheskogo sluxa u mladshix shkolnikov sredstvami muzikalno-didakticheskoy igri kak pedagogicheskaya problema / Kazanseva N.A., Moskvina I.V. // Vestnik Shadrinskogo gosudarstvennogo pedagogicheskogo universiteta. – 2011. – № 3 (12). – S. 73-77.

7. Kak prepodavat solfedjio v XXI veke / sost. O. Berak, M. Karaseva. – Moskva: Klassika-XXI, 2016. – 220 s.

REZYUME. Mazkur maqolada bugungi kunda oliy ta'lim tizimining o'quv jarayonida Solfedjio fanini o'rni, uning maqsad va vazifalari hamda shartlari xususida so'z yuritilgan. Shuningdek, maqolada Solfedjio darslarida olingan bilim va ko'nikmalar talabalarga cholg'u ijrochiligi va an'anaviy xonandalik darslarida, shuningdek, badiiy yo'nalishning qo'shimcha umumiy rivojlantiruvchi dasturlarining boshqa fanlarini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etishi haqida bayon etilgan.

РЕЗЮМЕ. В данной статье рассматривается роль сольфеджио в образовательном процессе системы высшего образования на сегодняшний день, его цели, задачи и практическая значимость. Также в статье отражено, что знания и навыки, полученные на занятиях по сольфеджио, важны для учащихся на уроках инструментального исполнительства и традиционного пения, а также при изучении других дисциплин дополняющих их гармоничного развивающих программ музыкального искусства.

SUMMARY. This article discusses the role of solfeggio in the educational process of the higher education system today, its goals, objectives and practical significance. The article also reflects that the knowledge and skills gained in solfeggio classes are important for students in instrumental performance lessons and traditional singing, as well as in the study of other disciplines that complement their harmonious developing programs of musical art.

МУЗЫКАНЫҢ ЭЛЕМЕНТАР ТЕОРИЯСЫ: ЖАСАЛМА ИНТЕЛЛЕКТ ПЕНЕН БАЙЛАНЫСЛЫ ПЕРСПЕКТИВАЛАР

М.Б.Насыров – *үлкен оқытыўшы*
Өзбекстан мәмлекетлик көркем өнер ҳәм мәденият институты Нөкис филиалы
"Театр ҳәм көркем өнер" факультети, "Вокал" кафедрасы

Таяныш сөзлер: жасалма интеллект, музыканың элементар теориясы.
Ключевые слова: искусственный интеллект, элементарная теория музыка.
Key words: artificial intelligence, elementary theory of music.

Музыка - бул миллетине, жасына, социаллық дәрежесине қарамастан, ҳәр бир адамның кеўили ушын түсиникли болған универсал тил болып, бул бизди басқа дүньяларға алып кетиўши, еслеўлерди оятыўшы ҳәм әпиўайылықты ашық-айдын сезимлер менен бояўшы сыйқырлы күш. Ол жапырақтағы самалдың сыбырлысы сыяқлы әсте ҳәм нәзик, ямаса гүлдирмама гүлдирмамалары сыяқлы күшли ҳәм қуўатлы болыўы мүмкин. Музыка тек ўақыт бойынша тәртипке салынған сеслер жыйындысы емес. Бул қурамалы ҳәм терең система болып, онда ҳәр бир элемент - нама, үнлеслик, ритм, тембр өз орнын ийелейди, тәкирарланбас орталық жаратады, белгили бир сезимлерди оятады.

Музыка қайғыда тәселле бере алады, қаҳарманлыққа ийтермелейди, қуўаныш ҳәм үмит бағышлап адамларды бирлестириўге, улыўмалық ҳәм аўызбиршилик сезимин пайда етиўге уқыплы. Музыка дәўир, мәденият ҳәм өзине тәнликтиң көриниси болып түрли халықлардың тарийхы ҳәм дәстүрлери, арзыў-нийетлери сәўлеленген. Музыка инсаниятты мәңгилик жолдасы болып, пүткил өмир даўамында биз бенен бирге жолдас болып келеди. Музыканың элементар теориясы тийкарғы принцип ҳәм түсиниклерди өз ишине алады: сес, нама, ритм, гармония.

Кейинги жылларда бул тийкарлар заманагөй технологиялар, соның ишинде, музыканы жаратыў ҳәм оны қабыл етиў ушын жаңа шеклерди ашып беретуғын жасалма интеллект пенен интеграцияланып атырғанлығын көремиз. Кейинги жылларда жасалма интеллект (АИ) ниң жедел раўажланыўы себепли музыка тараўында сезилерли өзгерислер жүз бермекте. Музыканы жаратыўдан баслап, анализлеў ҳәм үйрениўге шекем жасалма интеллект композиторлар, атқарыўшылар ҳәм музыка теориясын үйренип атырған студентлер ушын жаңа шеклерди